

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



5111600 - Milliy go'ya: ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi negizidagi:

5A111601 - Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus(ixtisoslik) fanlaridan

D A S T U R

Chirchiq - 2021

Annotatsiya

Dastur 5A111601 - Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5111600 – Milliy g`oya: ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishining 2018/2019-o‘quv yilida tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:	G‘affarova G.G‘.	-	TVChDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasи professori v.b., f.f.d.
	M.Sharipov		TVChDPI, Ijtimoiy fanlar kafedrasи o‘qituvchisi
	F.Usmonov	-	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali Ijtimoiy fanlar kafedrasи mudiri, f.d. (PhD), dotsent

Dastur Gumanitar fanlar fakultetining 2021-yil 30-iyundagi № 11-sonli Kengashi yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mazkur dastur 2021-2022 o‘quv yilida 5A111601 – Ijtimoiy–gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi bo‘yicha magistraturaga kiruvchilar uchun kirish sinovlari dasturi, savolnomalari va baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan. Dastur, savolnoma va mezonlari oliy ta’limning 5111600 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi Davlat ta’lim standartiga asoslanib tuzildi.

Asosiy qism

Ma’naviyatshunoslik fani bo‘yicha

“Ma’naviyat” tushunchasining mohiyati, predmeti, maqsad va vazifalari. Ma’naviyatshunoslik fanining tuzilmasi. Ma’naviyatshunoslikning kategoriyalari, tarkibiy qismlari va rivojlanish qonuniyatлari. Jamiyat, inson va ma’naviyat: Moddiy va ma’naviy hayot mushtarakligi. Ma’naviyat va o’zlikni anglash. Ma’naviyatshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Taraqqiyotning o’zbek modelida ma’naviyatning o’rni. Ma’naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi va jahon ilmida yangi soha. Unga berilgan turli ta’riflar. Ma’naviyatshunoslikning metodologik asoslari. Ma’naviyatshunoslik tarixiy-nazariy fan sifatida. Ma’naviyat - inson hayotining ma’nosи. Ma’naviyatni anglash - o’zlikni anglash yo‘li sifatida. Ma’naviyat tushunchasiga turli yondoshuvlar. Ma’naviyat tushunchasining ta’ifi va tuzilmasi. Mustaqil O’zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy –axloqiy negizlari. Mustaqillik yillarida milliy ma’naviy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar. Ajodolarimiz merosiga xolis munosabatni shakllanishi. Milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi. Ularning yosh avlod ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati. Ma’naviyat rivojida ichki va tashqi omillarni ta’sir. Ma’naviy yuksalishga jamiyat rivojlanishining umumiyligini qonuniyatлari ta’sir ko’rsatishi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog’lom ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlar muttasil o’sib borishi qonuni. Ma’naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog’liqlik qonuni. Ma’naviyat yuksalishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasiga bog’liqlik qonuni. Ma’naviyatning “Ommaviy madaniyat” ta’sirlardan himoyalash funktsiyasi. Uning inson va jamiyat hayotining barcha sohalari bilan aloqadorligi hamda uning lokomotivlik xususiyati. Ma’naviyatshunoslik ham boshqa fanlar kabi o’zining mustaqil tarkibiy qismlariga egaligi. Ularni madaniyat, meros, mafkura, qadriyat va ma’rifat kabilar tashkil qilishi. “Madaniyat” tushunchasining mohiyati. Ma’naviyat va madaniyatning o’zaro munosabatlari. “Meros” tushunchasining mohiyati. Madaniy merosning – ma’naviyat rivojidagi o’rni. “Qadriyat” tushunchasining mohiyati. Qadriyatlarni turlari. Ma’naviyat va qadriyat

aloqadorligi. “Mafkura” tushunchasining mohiyat. Ma’naviyat va mafkura. Milliy g’oya va milliy mafkurada milliy va umumbashariy qadriyatlarni namoyon bo’lishi. “Ma’rifat” tushunchasining mohiyati. Ma’naviyatning metodologik mohiyati. Ma’naviyatshunoslik fanini o’rganish va o’qitish uslublari. Ma’naviyat va iqtisodiyot aloqadorligi. Bozor iqtisodi va ma’naviyat. Ma’naviyat va siyosat uyg'unligi tinchlik, totuvlik, barqarorlik, taraqqiyot omili ekanligi. Qonun ustuvorligi, ijtimoiyadolat, umumxalq manfaatlarini ustuvorligi, demokratik qadriyatlar, shaxs erki ma’naviyatning siyosatda namoyon bo’lishi. Ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirish davlatimiz siyosatida ustuvor soha. Taraqqiyotimizning yangi bosqichida ma’rifat, ilm-fan, adabiyot va san’atni rivojlanishi. Ma’naviyat va huquq, ularning o’zaro aloqadorligi. Huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati o’ziga xos ma’naviy fazilatlari. Huquqiy madaniyat va ma’rifat. Konstitutsiyamizda xalqimizning ma’naviy qadriyatlarni namoyon bo’lishi. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi ekanligi. “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralarini xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan g’oyani ma’naviy mohiyati. Tanqidiy tahlil, qa’tiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerakligi. Taraqqiyotimizning yangi bosqichida xalq ishonchini qozonish, hokimiyatni boshqaruva tizimiga ma’naviy barkamol shaxslarni jalg qilish taraqqiyotimizning muhim sharti ekanligi.

“Ma’rifat” tushunchasining mohiyati. Yuksak ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyot omili ekanligi. Ma’naviyat va ma’rifat uyg'unligi taraqqiyot omili. Qur’oni karim va Hadisi shariflarda ilm-ma’rifatni egallash haqida. Milliy g’oya va ma’naviy hayot. Globallashuv jarayonlarida ma’naviyatga tahdidlar. Fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish zarurligi. Inson va jamiyat hayotida g’oya, mafkura va ma’naviy qadriyatlarni o’rni. Ma’naviyat va ruhiyat nisbatlari, ularning o’ziga xos jihatlari. Ma’naviyatning diniy ildizlari. Diniy qadriyatlar va ma’naviyat. Din va ma’naviyatning umumiyligi va farqli jihatlari. Dinning tarixiy shakllari va mohiyati. Dinning funktsiyalari. Dinlardagi ezgu g’oyalar. Islom ma’naviyati. Qur’oni karim va Hadisi shariflarda inson ma’naviyatini va ma’rifati masalalari. Ma’naviyat va axloq nisbatlari. Axloq - ma’naviyat o’zagi. Axloqning ma’naviyat tizimidagi o’rni. Axloqiy fazilatlarning ma’naviy mohiyati. Odob, xulq, axloq va ma’naviyat.

Milliy tarbiya. Milliy ma’naviyat faqat milliy asosda emas, shu bilan birga umuminsoniy qadriyatlar ta’sirida o’sishi va rivojlanishi. Ma’naviyatda milliy mahdudlik va ayirmachilikning salbiy oqibatlari. Umuminsoniy qadriyatlarning zaminlari. Hozirgi sharoitda millatlararo madaniy-ma’naviy munosabatlarning yanada

kengayishi. Milliy-madaniy markazlarning ko'p millatli O'zbekiston uchun ahamiyatini.

Globallashuv asoslari

“Globallashuv asoslari” talabalarni nazariy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, hamda jamiyat axborotlashuvining globallashuv bilan o'zaro aloqadorligi, jinoyat globallashuvining usul va vositalari madaniyat va axloq globallashuvining milliy mentalitetga ta'siri, sport globallashuvining o'ziga xos xususiyatlarini o'rghanishdan iborat.

Fan bo'yicha talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'ydagি talablar qo'yiladi:

- “Globallashuv asoslari” fanining predmeti, obekti, maqsad va vazifalari, hozirgi zamон geosiyosatining asosiy xususiyatldari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

- “Globallashuv asoslari” fanining metodlari, globallashuvning asosiy xususiyatlari, globallashuvning asosiy to'lqinlari, namoyon bo'lish sohalari va uni ta'min etuvchi vositalar, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarning globallashuvi, uning O'zbekiston manfaatlariga zidligi, globallashuv sharoitida ta'lim tizimi olidagi vazifalarini bilishi;

- Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini bilishi, undan ko'zlangan maqsadlarni anglab yetish, dunyoning mafkuraviy manzarasi yoritib berish, yoshlarda turli tahdidlarga nisbatan ogohlilik va dahldorlik tuyg'ularini tarbiyalab borish, yoshlarga vatanimiz geosiyosiy manfaatlarini tushuntirib bera olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

«Globallashuv asoslari» fanining tadqiqot doirasi, uning maqsad-vazifalari, hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar. Globallashuvning nazariy asoslari. Globallashuv universallashuv jarayonida sifatida.

Globallashuv tushunchasi. Globallashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo'lish yo'llari. Globallashuv amalga oshishining turli xil vositalari. Globallashuv yuz berishida internet, badiiy adabiyot, OAV, ta'lim, hamkorlik va boshqalar. Dunyoning hozirgi mafkuraviy manzarasi. Milliy istiqlol g'oyasi – O'zbekistonning o'ziga xos va mos rivojlanish konsepsiysi. Milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadi – ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish. Milliy istiqlol g'oyasining O'zbekiston istiqbolini ifoda etuvchi milliy taraqqiyot konsepsiysi ekanligi. Yagona Vatan, O'zbekistonning kelajagi to'g'risida qayg'urishning zarurligi. O'zbekiston xalqining ozod va obod Vatanda, erkin va farovon yashashga haqli ekanligi. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Uning mezonlari, shart-sharoitlari va omillari. Ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlik tushunchalarining mazmun-mohiyati. Globallashuv jarayonida O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida milliy g'oyaning o'rni. Millatni globallashuvdan himoya etishning nazariy asoslari. Mafkuraviy immunitet mohiyati. Mafkuraviy immunitet va ideologik profilaktika. Globallashuv va ma'naviy madaniyat. Globallashuv sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortish

sabablari. Globallashuvning milliy rivojlanish va millatlararo munosabatlarga ta'siri. Globallashuvning ijobiylari va salbiy jihatlari.

Ijtimoiy hayot va din fani bo'yicha

"Ijtimoiy hayot va din" fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, umumta'lim fanlarini o'qitish, o'qitilayotgan fanlarni kasbga yo'naltirib o'qitish metodika bo'yicha uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- "Ijtimoiy hayot va din" fanini din va diniy ta'limotlar, dinning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni jamiyatdagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- "Ijtimoiy hayot va din" fanini o'qitish, diniy e'tiqod, diniy tasavvur, hamda din jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- "Ijtimoiy hayot va din" fanini o'qitish, din to'g'risida ma'lumotlarga va ular bo'yicha kerakli xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Fan predmeti, maqsadi va vazifalari. Ijtimoiy munosabatlar va ta'limotlar. Dinlar kelib chiqishining ijtimoiy-tarixiy asoslari. Din falsafasi. Qadimgi milliy dinlar va uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli. Zardushtiylik ta'limoti Iudaizm - monoteistik din sifatida. Buddaviylik dini. Qadimgi hind jamiyatida buddaviylikning tutgan roli. Yevropa xalqlari hayotida xristianlik mafkurasining vujudga kelishi. Oqimlar va yo'nalishlari. Islom dinining paydo bo'lishi. Yo'nalishlar va oqimlar. Islom g'oyalarining ijtimoiy-funksional mohiyati. Tasavvuf tarixi va ta'limoti. Tasavvuf namoyondalarining diniy, ijtimoiy va falsafiy qarashlari. Din, ma'naviyat, fan va siyosat. Diniy qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyati. Bugungi kunda diniy va dinlararo munosabatlar. Vijdon erkinligi, diniy tashkilotlar, konfessiyalar va millatlararo munosabatlar. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy asoslari.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fani bo'yicha

XXI asrga kelib dunyo hamjamiatida axborot hurujlari va g'oyaviy tahdidlar kuchaymoqda. Bu murakkab jarayon ilmiy amaliy jihatdan atroflicha bugungi kunda targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyat ma'naviy-g'oyaviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarini ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari hamda tashviqotchilar uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash muhiti vazifalar tarkibiga kiradi. Shu sababli milliy g'oyaning asosiya maqsadlarini xalqqa sodda, xaqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun, nimani, qanday targ'ib qilishni

aniq tasavvur etish, uni inson ongiga qanday etkazish usullarini ishlab chiqish lozim. Targ‘ibot texnologiyalaridan maqsad – nafaqat bilim orttirish, balki kishilarni biron-bir xatti-xarakatga undashdan iborat.

Fan bo‘yicha talabgorlarning bilim, ko’nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanining asoslarining mazmun-mohiyati, uslublari, vazifalarini tahlil eta olish;
- milliy g‘oya targ‘iboti jarayonlarning mohiyati, tarkibi, umumiyl qonuniyatlarini ochib berish ko`nikmasiga ega bo`lish;
- milliy g‘oyaning targ‘ibot texnologiyalari ifodalangan konseptual yo‘nalishlar, uslublarni yorita olish;
- milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy jihatlarini bayon qilish malakasiga ega bo`lish.

Oliy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyasi: mazmun-mohiyati, tuzilmasi va tasnifi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari: predmeti, maqsadi va vazifalari. Milliy g‘oya fanining pedagogik texnologiya asosda o‘qitish nazariyasi. Milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari. Milliy g‘oya targ‘ibotida OAVlarining o‘rni. Milliy g‘oya targ‘ibotida “Jamoatchilik bilan aloqalar”. Milliy g‘oya targ‘ibotida xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning o‘ziga xos usullari. Milliy g‘oya targ‘ibotida milliy-madaniy markazlarning o‘rni va roli. Globallashuv jarayonida yoshlар ongiga milliy g‘oyani singdirish texnologiyalari. Milliy g‘oya fanini o‘qitishda didaktik jarayon loyihasining interfaol usullari.

Ma’naviy-marifiy ishlarni tashkil etish metodikasi fani bo`yicha

“Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi” fani milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarida bu sohada aniq va samarali metodlarni qo`llay olishning nazariy-uslubiy jihatlarini tahlil etadi.

Fan bo‘yicha talabgorlarning bilim, ko’nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi” fani ahamiyati, maqsad va vazifasi haqida ***tasavvurga ega bo’lishi***;
- ma’naviy-ma’rifiy ishlар tizimi;
- jamiyatni insonparvarlashtirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni;
- uzlusiz ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning roli;
- ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning mohiyati va asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida bilimga ega bo’lishi kerak.

Jamiyatni insonparvarlashtirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o’rni. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar. Ma’naviy -ma’rifiy tarbiya, jamiyat va yoshlar. Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning roli. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalish. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning takomillashuvi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tashkil etilishi va faoliyati. Hozirgi bosqichda ma’naviy-ma’rifiy ishlar va unga qo‘yilayotgan talablar. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning mohiyati va asosiy yo‘nalishlari. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning ilmiv-uslubiy asoslari. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari.

5111600 – Milliy g’oya: ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo`nalishi negizidagi 5A111601 – Ijtimoy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) magistratura mutaxassisliklariga kirivchilar uchun maxsus (ixtisoslik) fanlaridan kirish imtihoni yozma ishlarini o’tkazish tartibi va baholash mezoni

Ixtisoslik fanlari bo'yicha magistraturaga kirish imtihoni "Yozma ishi" ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variantda beshtadan savol aks ettiriladi.

"Yozma ish" variantlarining birinchi savoli "Ma’naviyatshinoslik", ikkinchi savoli "Globallashuv asoslari", uchinchi savoli "Ijtimoiy hayot va din", to‘rtinchi savoli "Milliy g’oya targ‘iboti texnologiyalari", beshinchi savoli "Ma’naviy-marifiy ishlarni tashkil etish metodikasi" fanidan bo‘lib, har bir savol 20 balli tizim asosida baholanadi.

Yozma ishni o‘tkazish uchun uch (akademik) soat vaqt beriladi.

Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi har bir savoldan talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:

- berilgan savolga to‘g‘ri va to‘liq javob yozilsa, savolning mazmuni, mohiyati to‘g‘ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 17–20 ball oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, savolning mazmuni to‘liq yoritilgan bo‘lsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 14– 16 ball oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to‘liq yoritilmagan bo‘lsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 11–13 ball oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto‘g‘ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo‘yilgan masalaning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 - 10 ball oralig‘ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi bo'yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0 dan 100 balgacha baholanadi (86-100 ball – a”lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz).

ESLATMA: Kirish imtihoni jarayonida qo‘yilgan bahodan norozi bo‘lgan abiturentlar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e’lon qilingan kundan e’tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Imtihon komissiyasi va talaba o‘rtasida baholash ballari bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda qabul komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Foydalaniman asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar hamda qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom, shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining asosiy mezonidir. Toshkent – 2017.
2. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti - 2017
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat”. 2008
 4. Umarov E. Ma’naviyat asoslari. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2005 yil.
 5. Markaziy Osiyo: g‘oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – T.: “Ijod dunyosi” nashriyoti, 2002 yil
 6. Ma’naviyat izohli lug‘ati.–T.: G‘.G‘ulom nashriyoti, 2009 yil
 7. Sulaymonova F. SHarq va Farb. – T., O‘zbekiston, 1997.
 8. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. “Toshkent islom universiteti” T.: 2005 y.
 9. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. “Movarounnahr” T.: 2004 y.
 10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ixtiloflar haqida. T.“Yangi asr avlod” 2003 y.
 11. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. T., «Ijod dunyosi» 2002 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Imom Buxoriy. “Hadis”. 4 jildlik. - Toshkent. Qomuslar bosh tahriri, 1993.
2. Abu Nasr Forobi. “Fozil odamlar shahri”. - T., A.Qodiriy nomli “Xalq merosi” nashriyoti, 1993.
3. “Temur tuzuklari”. -T.: “Adabiyot va san’at”, 1996.
4. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. -T.: “Sharq”, 1994.
5. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. -T.: “Sharq”, 2001.
6. Avesto haqida. Tilab Mahmudov. –T.: “Sharq”, 2000.

7. Abdurahimova N., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. – T.: “Akademiya”, 2002.
8. Jakbarov M. Komil inson g‘oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. –T.: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2000.
9. Otamurotov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g‘oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. –T.: Yangi asr avlodi, 2001.
10. Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi. - T., Akademiya, 2005.
11. Islomov Z. Bunyodkor g‘oyalar. – T., “Ijod dunyosi”, 2002.
12. Alimova D. Insoniyat tarixi g‘oya va mafkuralar tarixidir. T., “Ijod dunyosi”, 2002.
13. Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya. –T., “Akademiya”, 2001.
14. Sharafitdinov O. Istiqlol fidoiyları: Mustafo Cho‘qay, Cho‘lpon, Otajon Xoshim. –T., 1993.
15. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushincha va tamoyillar. Izohli ko‘rgazmali vositalar. Mualliflar jamoasi – T., «Yangi asr avlodi», 2007.

Internet saytlari:

- 1.ma'naviyat.gov.uz
2. <https://president.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz/>
4. <http://www.pedagog.uz/>
5. dist.cspl.uz
6. www.philosophy.ru
7. www.filosofiya.ru
- 8.www.philosophy.nsc.ru